



FARG'ONA VILOYATI FARG'ONA TUMANI HOKIMINING FARMOYISHI

2025-yil 30-oktabr

154-11-163-F/25

Farg'ona tumani hokimligi

Tuman hududidagi isitish qozonxonalarini mavsumga tayyorgarligini sinash, ishga tushirish hamda 2025-2026-yil kuz-qish mavsumini boshlash maqsadida

Tuman hududidagi markazlashgan isitish qozonxonalarini mavsumga tayyorgarligini sinash, ishga tushirish hamda 2025-2026-yillar kuz-qish mavsumini boshlash maqsadida,

1. Farg'ona viloyati hokimining 2025-yil 29-oktabrdagi 576-11-0-f/25-sonli farmoyishi inobatga olib, xalq xo'jaligi korxonalari va ijtimoiy soha muassasalari uchun sinov isitish ishlari 2025-yil 29-oktabr kunidan boshlansin.

2. Turar joylar, korxonalar, muassasalar va ijtimoiy inshootlarda isitish mavsumining boshlanishi 2025-yil 29-oktabr kunidan belgilansin.

3. Farg'ona tumani hokimining o'rinbosari M.Qodirxonov, "Farg'ona elektr tarmoqlari hududiy korxonasi" AJ Farg'ona tumani bo'limi (M.To'xtasinov), "Hududgaz Farg'ona" gaz ta'minoti Farg'ona tumani bo'limi (B.Umarov) ga sinov isitish ishlari boshlanishi munosabati bilan tuman "Issiqlik manbai" ICHDB, tumandagi korxonalarini elektr energiyasi va tabiiy gaz bilan belgilangan parametrlarda ta'minlab berish chora tadbirlarini ko'rish vazifasi topshirilsin. Bunda tumandagi ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lmagan obyektlarga tabiiy gaz yetkazib berilishini to'xtatish hamda boshqa muqobil yonilg'i turlaridan foydalanish bo'yicha tavsiyalar berilsin.

4. Tuman Iqtisodiyot va moliya bo'limi (A.Yusupov), Maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi (Sh.Yuldashev), Tuman Tibbiyot birlashmasi bo'limi (X.Toshboyev), Kasb-hunar ta'limi, Sport maktablari, Madaniyat bo'limi (M.Abdullayev), MFY raislari har bir muassasalarda kuz-qish mavsumi davomida yaratilgan ko'mir zaxirasini sifatli saqlanishi hamda havo haroratini inobatga olgan holda ko'mir, ko'mir briketi, tabiiy gaz va elektr energiyasidan oqilona foydalanishini doimiy nazoratga olib borsin.

5. "O'zenergoinspeksiya" Farg'ona hududiy inspeksiyasi (Temirov), Sanoat, radiatsiya va yadro xavfsizligi qo'mitasining Farg'ona hududiy bo'limi (Sobirov) ga kuz-qish mavsumida iste'molchilarga belgilangan miqdorda elektr energiyasi, tabiiy

va suyultirilgan gaz, ko‘mir yoqilg‘isi yetkazib berilishini nazorat qilish, tarmoqlarda noqonuniy foydalanuvchilari aniqlash va ularga nisbatan belgilangan tartibda keskin choralar ko‘rish vazifalari topshirilgani ma’lumot uchun qabul qilinsin.

6. Mazkur farmoyishning bajarilishini nazorat qilish Farg‘ona tumani hokimining o‘rinbosari M.Qodirxonov zimmasiga yuklatilsin.

Farg‘ona tuman hokimi



Inomov X.T